

MAQOM CHOLG‘U IJROCHILIGIDA USTOZ-SHOGIRD AN‘ANALAR



Shamaxmud Sharaxmetov

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti
“Maqom cholg‘u ijrochiligi” kafedrası professori v.b.

Annotatsiya: Musiqiy ta‘limning eng qadimiy, eng mo‘tabar tamoyillaridan biri — bu “ustoz–shogird” an‘anasidir. Asrlar qa‘ridan so‘zlab kelayotgan ushbu an‘ana musiqiy bilim va mahoratni avloddan avlodga yetkazishda eng ishonchli maktab bo‘lib xizmat qilgan. Chunki ustoz qo‘lida tarbiya topgan shogird nafaqat kuy va nag‘malar orasidagi murakkab texnik sirlardan voqif bo‘ladi, balki san‘atning eng nozik — ma‘naviy, estetik va ruhiy qatlamlarini ham qalbiga jo qiladi. Ustozning birgina ohista ko‘rsatmasi, kuyga bergan nozik ta‘kidi, tor ustidagi bir lahzalik pardoz — bularning bari shogird xotirasida umrboqiy iz qoldiradigan bebaho maktabdir. Ushbu maqolada maqom cholg‘u ijrochiligida ustoz-shogird an‘analari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: sozanda, xonanda, ta‘lim, an‘ana, musiqa san‘ati, ustoz, maqom, tarbiya, maktab.

Abstract: One of the oldest and most respected principles of music education is the "master-student" tradition. This tradition, spoken from the depths of centuries, has served as the most reliable school for transmitting musical knowledge and skills from generation to generation. Because a student raised under a teacher not only understands the complex technical secrets between melodies and tunes but also absorbs the most subtle layers of art - spiritual, aesthetic, and spiritual. The teacher's single gentle instruction, the subtle emphasis on the melody, the momentary makeup on the string - all these are priceless schools that leave an eternal mark in the student's memory. This article discusses the master-student traditions in maqom instrumental performance.

Keywords: musician, singer, education, tradition, musical art, teacher, maqom, upbringing, school.

Аннотация: Одним из старейших и самых уважаемых принципов музыкального образования является традиция "мастер-ученик." Эта традиция, передаваемая с глубины веков, служила самой надежной школой для передачи музыкальных знаний и навыков из поколения в поколение. Потому что ученик, воспитанный под руководством учителя, не только понимает сложные технические секреты мелодий и мелодий, но и впитывает самые тонкие пласты искусства - духовный, эстетический и духовный. Единственное мягкое наставление учителя, тонкий акцент на мелодии, мгновенный макияж на струне - все это бесценные уроки, которые оставляют вечный след в памяти ученика. В данной статье обсуждаются традиции мастер-ученик в инструментальном исполнении макома.

Ключевые слова: музыкант, певец, образование, традиция, музыкальное искусство, учитель, маком, воспитание, школа.

Maqom san'atini o'rgatish esa o'ziga xos bir olam, alohida maktabdir. Bu san'at mukammal ijro mahoratini talab etish bilan birga, ohangning badiiy talqinini, har bir janr va uslubning o'ziga xos ruhi va falsafasini chuqur anglashni ham zarur etadi. Maqomning har bir bo'g'ini, har bir ohangi, har bir nafasida asrlar ruhi, millat xotirasi yashaydi. Ustoz ana shu merosni shogirdga ko'z bilan emas, ruh bilan ko'rsatadi, kuyga hayot baxsh etuvchi ilhomni esa sekin-asta uning qalbiga singdiradi.

Shu bois ustoz–shogird maktabining mohiyati shundan iboratki, san'at faqat so'z yoki ohang bilan emas, balki qalb va ruhning uyg'un jarayoni bilan tirik bo'ladi. U ustozdan shogirdga, shogirdan kelajak avlodga o'tib boradi — goh san'atkorning ovozida, goh torlarning mayin tebranishida, goh esa ko'zga ko'rinmas ilhom chizgilarida yashaydi. Shu tarzda maqomning abadiy nafasi, milliy san'atning bebaho ruhi davom etadi. Musiqa san'ati — inson qalbinin eng nozik qirralarini tarannum etuvchi, asrlar davomida jamiyatning ma'naviy ko'zgusi bo'lib kelgan bebaho xazina. Uning turli janrlari, shakllari va uslublari o'zaro uyg'unlikda yashab, milliy madaniyatning ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, an'anaviy musiqa va maqom san'ati o'zining tarixiy ildizlari, falsafiy teranligi va estetik boyligi bilan hanuzgacha o'z o'rnini yo'qotmagan, balki har bir avlod uchun yangidan kashf qilinadigan ma'naviy olam sifatida qadrlanadi.

San'atning boshqa tarmoqlarida bo'lgani kabi, musiqada ham ijrochilikni o'rgatish tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Ustoz–shogird an'anasi esa bu tizimning yuragi, uning eng hayotiy va tabiiy shaklidir. Ustoz qo'lida tarbiya topgan shogird nafaqat mahorat sirlarini o'zlashtiradi, balki san'atning ruhini, uning ichki mohiyatini, kuylar ortidagi hayot falsafasini ham chuqur his eta boshlaydi. Ana shu jarayon orqali tajriba almashuvi, badiiy dunyoqarashning shakllanishi va san'atning avloddan avlodga yetkazilishi davom etib keladi.

Bugungi globallashuv sharoitida, jahon madaniyati bilan integratsiya jarayonlari tobora jadallashar ekan, maqom san'atini yangi avlodga o'rgatish masalasi yanada dolzarb tus olmoqda. Zamonaviy pedagogik metodlar, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar an'anaviy maktab bilan uyg'unlashib, musiqiy ta'lim tizimida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu jarayon o'z navbatida ta'limni takomillashtirish, ustoz–shogird maktabining ruhini asrab-avaylagan holda uni yangi bosqichga ko'tarishni talab qiladi.

An'anaviy sozandalik maktabini egallashni maqsad qilgan har bir cholg'u ijrochisi, avvalo, mahoratli ustoz rahbarligida ta'lim olishni shart deb bilgan. O'zbek musiqiy an'alarida ustoz–shogird tizimi faqat amaliyotga asoslangan o'qitish shakli bo'lib qolmay, balki ma'lum qoidalarga ega bo'lgan tarbiyaviy hamda kasbiy institut sifatida shakllangan. Tarixiy manbalardan ma'lumki, musiqiy iste'dodsiz, cholg'u chalish imkoniyatiga ega bo'lmagan yoki san'atga ichki ishtiyoqi yetarli bo'lmagan shaxslar ushbu kasbga murojaat qilmagan. Bu esa an'anaviy musiqiy ta'limda seleksiya tamoyili mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Iste'dod sohiblari esa o'z ustoziga sadoqat ruhida yondashib, kasbning barcha murakkabliklariga sabr bilan bardosh berib, sozandalik sirlarini mukammal o'zlashtirishga intilganlar. Ustoz rahbarligidagi bu jarayon shogirdning nafaqat texnik mahoratini, balki kasbiy madaniyat, ijro etikasi, sahna odobi va musiqiy tafakkurini shakllantirishda muhim omil bo'lgan.

Shu jihatdan qaraganda, sozandalikning eng asosiy xususiyatlaridan biri — bu kasbga bo'lgan ichki mas'uliyat, qat'iyat va mahoratni izchil rivojlantirishga intilishdir. An'anaviy musiqiy ta'lim tizimi ana shunday tamoyillar asosida avloddan avlodga o'tib, milliy musiqiy merosning uzluksiz davomiyligini ta'minlab kelmoqda.

Bugungi kunda musiqiy ta'limning ta'sir doirasi faqatgina san'atning texnik jihatlarini o'zlashtirish bilan cheklanmaydi. Zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishi musiqiy pedagogikani yangi metodlar, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar bilan boyitishni talab

etmoqda. Shu bois an'anaviy o'qitish metodlarini hozirgi davr ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish, musiqiy ta'lim pedagoglarining kasbiy tayyorgarligi, ijodiy salohiyati va metodik kompetensiyasini oshirish zarurati keskin dolzarblik kasb etmoqda.

Musiqiy ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida ta'lim tizimini yangilash, pedagogik faoliyatning ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlash, amaliy mashg'ulotlar hajmi va samaradorligini oshirish muhim omillar sifatida maydonga chiqmoqda. Bu esa musiqiy ta'lim sifati va mazmunini yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Zamonaviy musiqiy ta'lim o'qituvchisi keng qamrovli kasbiy kompetensiyalarga, ijodiy fikrlash salohiyatiga va musiqiy-texnologik bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. Musiqiy kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ularning musiqiy pedagogikaga bosqichma-bosqich integratsiyalashuvi, interaktiv o'qitish metodlaridan foydalanish o'qituvchilar kasbiy mahoratini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, o'quvchilarni zamonaviy musiqa vositalaridan samarali foydalanishga o'rgatish ularning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, yangi musiqiy shakl va janrlar yaratishga rag'batlantiradi.

Maqom san'ati o'zining tarixiy ahamiyatiga ega bo'lib, ko'plab asrlar davomida shakllangan va yuksak badiiy darajaga yetgan. Shunday bo'lsa-da, zamonaviy ijrochilikda maqomni o'rganishda yangi usullarni qo'llash zarur. Ushbu jarayonda san'atning an'anaviy shakllarini saqlab qolish, lekin ularni zamon talablari va texnologik imkoniyatlar bilan boyitish muhimdir. Bundan tashqari, maqom san'ati ustozlari yosh shogirdlarini faqat musiqiy texnikaga o'rgatibgina qolmay, balki ularning estetik didini rivojlantirish, xalq musiqasining falsafiy, ma'naviy va estetik jihatlarini anglatishga ham alohida e'tibor qaratishlari lozim. Shogirdlar musiqiy ijodning sirlarini anglashga va ijodiy mustaqillikka erishishga intilishlari kerak.

Yangi asrning dastlabki yillarida maqom ijrochiligi san'ati o'zining rivojlanishini davom ettirganini aytish mumkin. Shu bilan birga, musiqiy merosimizning uch asosiy yo'nalishi — xonandalik, sozandalik va bastakorlik — o'zgarishlar va rivojlanishlar bilan to'ldirilganini ko'rishimiz mumkin. Bu jarayonlar musiqaning ijro etilishida yangi bosqichlarga olib keldi.

Rivojlangan dunyoning aksariyat mamlakatlarida ham zamonaviy ta'lim jarayoni nafaqat pedagogik-tadqiqot usullaridan, balki ijtimoiy va tabiiy fanlar usullaridan ham keng foydalanadigan eksperimental pedagogikaga tayanishi bilan ajralib turadi. Zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyotda talabalarining shaxsiy faoliyatini rivojlantirish muammosi ayniqsa dolzarbdir. Hozirgi kunda ko'plab o'qituvchilar ko'proq e'tiborini o'quv jarayoni eng muvaffaqiyatli bo'lgan sharoitlarni tashkil etish masalalari, shuningdek talabalarining o'qishga bo'lgan doimiy ijobiy motivatsiyasini shakllantirish, shaxsiy o'sishi uchun sharoit yaratish va talabalarining bilim va qiziqishlarini rivojlantirish bilan bog'liq masalalar jalb qilmoqda.

Hozirgi kunda o'zbek musiqasining rivojlanishida o'rnak bo'lib kelgan san'atkorlarning ijodiy faoliyatlari katta e'tirofga sazovordir. Ularning musiqiy merosi va san'atga qo'shgan hissalarini xalqimiz uchun bebaho ahamiyatga ega. Shunga qaramay, har bir san'atkor o'z faoliyatida zamonning talablariga moslashish jarayonida ba'zi cheklovlar va qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ayniqsa, yangi ijodiy asarlarni yaratish jarayonida o'zbek musiqasining mumtoz an'analari bilan uyg'unlashgan, tinglovchini o'yga to'ldiradigan va musiqaning chuqur mazmunini aks ettiruvchi asarlar soni yetarli darajada emas. Bugungi kunda yaratilayotgan musiqiy asarlar soni ko'p bo'lishiga qaramay, ulardan faqat bir qismi mumtoz musiqaning yuqori darajasiga yetib bormoqda. Shuning uchun yangi avlod ijodkorlariga hali ko'p ishlar kutmoqda.

Maqom ijrosi katta bilim va sabr talab qilganligi sababli, ko'pchilik yoshlar bu yo'nalishni tanlashga ikkilanishadi. Ijrochilarga moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilishi lozim. U asrlar davomida shakllanib, xalqimizning ruhiy-axloqiy dunyoqarashini, falsafasini va

madaniy xotirasini mujassamlashtirib kelmoqda. Biroq XXI asrda, raqamli jamiyat sharoitida maqom san'atining ommalashtirilishi yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Bugungi kunda yoshlar orasida maqomga bo'lgan qiziqish pasayganligi, ommaviy axborot vositalarining ko'proq tijoratga asoslangan kontent ishlab chiqayotganligi sababli, maqom keng ommaga yetarli darajada tanitilmayapti. Shu boisdan ham maqomni ommalashtirishda media vositalari faol ishtirok etishi lozim.

Bugungi raqamli asrda ijtimoiy tarmoqlar (YouTube, Instagram kabi platformalar) orqali maqomni targ'ib qilish mumkin. Yosh maqom ijrochilari o'z sahifalari orqali jonli ijrolar, qisqa video lavhalar, darsliklar, seminarlar, intervyular bilan ommaga chiqishlari kerak. Bu bir tomondan ommalashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan xalqaro auditoriyani ham jalb etadi.

Maqom - bu o'zbek xalqining yuragi, qalbi va ruhi. Maqom san'atini ommalashtirish bu - faqatgina san'atni saqlab qolish emas, balki millatni, uning madaniyatini, estetik tafakkurini asrab-avaylash demakdir. Bugungi kunda mamlakatimiz bu borada sezilarli qadamlar tashladi va bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarni izchil davom ettirish, ayniqsa, yosh avlodni ushbu san'atga jalb qilish muhim vazifadir. Zero, maqom - bizning milliy musiqiy tilimiz, ichki olamimizning ovozi. Uni ommalashtirish - bu avlodlar o'rtasida ruhiy ko'priklar barpo etish, milliy g'ururni uyg'otish va madaniyatimizni asrab-avaylash demakdir. Har bir ijrochi, muallim, tadqiqotchi va san'at fidoyisi ushbu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi zarur deb hisoblaymiz.

Foydalangan adabiyot ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrda "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. Mahmud Ahmedov. Hoji Abdulaziz Rasulov. T.: "O'qituvchi" 1974.
3. Yunusov R. Faxriddin Sodiqov. YUNESKO dasturiga asosan nashr ettirilgan. T.:2005.
4. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Toshkent. 1998.
5. Yuldosheva F. Bugungi maqom cholg'u ijrochiligida Turg'un Alimatov maktabining ahamiyati: dutor misolida. Yunus Rajabiy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2022.
6. Is'hoq Rajabov. Maqomlar. (Nashrga tayyorlovchi va maxsus O.Ibrohimov). "San'at", Toshkent, 2006.
7. To'xtasinbek G'ofurbekov. Bastakorlik ijodiyoti: tarixi, tahlili, taqdiri. "Muharrir" nashiyoti, Toshkent, 2019.